

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FAN VA INNOVATSIYALARNING RIVOJLANISH HOLATI TAHLILI

Исломов Висола

JIZPI "Menejment" yo'nalish talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17922267>

Annotatsiya: Hurmatli yurtboshimiz takidlaganlaridek, Innovatsiya – bu kelajak degani. Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo'lsak, uni aynan innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak.

Kalit so'zlar: innovatsion g'oyalar, innovatsion yondashuv.

Darhaqiqat, XXI asrda texnika va texnologiya'ning bu darajada rivojlanishining asosida insoniyatni iqtisodiy manfaatdorlikka chorlovchi va unga erishtiruvchi asosiy omillardan biri –innovatsion iqtisodiyot yotibdi.[2]

Jati Senguptaning innovatsiyalarga bergan ta'rifiga to'xtalib o'tsak. —Texnologiyalarga asoslangan innovatsiyalar mahsulot innovatsiyasi, sanoatda —ilmiy izlanish va rivojlanish ko'rinishidagi investitsiyalar va taqlid va takomillashtirishni o'z ichiga olgan texnologiyalar transferini o'zida mujassam etadi.[5]

Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari (ITTKI) – bu bilimlarni oshirish maqsadida olib boriladigan va shu bilan birga insoniyat, madaniyat va jamiyat haqidagi bilimlarni oshirishga qaratilgan ijodiy faoliyatdir.

O'zbekiston Respublikasida 2024 yilda ilmiy tadqiqot va ishlanmalarni bajargan tashkilotlarning umumiy soni 264 tani tashkil etdi.

Ilmiy tadqiqot va ishlanmalarni bajargan tashkilotlarning eng ko'p qismi Toshkent shahrida 135 tani (jamiga nisbatan ulushi 51,1 %), Farg'ona viloyati 21 ta (8,0 %) va Toshkent viloyatida 18 tani (6,8 %) tashkil etgan.

Ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlanmalarni bajargan tashkilotlar nisbatan kam hududlar sifatida Jizzax viloyati 4 ta (1,5 %), Navoiy va Namangan viloyatlarida 5 tadan (1,9 % dan) qayd etilgan.

O'zbekiston Respublikasida 2024 yilda ilmiy tadqiqot va ishlanmalarni bajargan xodimlarning umumiy soni 37 164 tani tashkil etib, 2023 yilga nisbatan 260 taga yoki 0,7 % ga oshgan.[1]

Ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlanmalarni bajargan xodimlarning soni (tegishli yil oxiriga, birlik)




Manba: O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi ma'lumoti asosida muallif ishlanmasi

Ilmiy-tadqiqot xodimlari – ijodiy faoliyati tizimli ravishda ilmiy bilimlar hajmini oshirishga va ushbu bilimlarni qo'llashning yangi yo'nalishlarini topishga qaratilgan, shuningdek ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni amalga oshirish bilan bevosita bog'liq xizmatlar ko'rsatadigan jismoniy shaxslar.

2024 yilda Ilmiy tadqiqot va ishlanmalarni bajargan xodimlarning nisbatan eng ko'p qismi Toshkent shahrida – 15 050 tani (jamiga nisbatan ulushi 40,5 %), Samarqand viloyatida – 3 332 tani (9,0 %) va Andijon viloyatida 2 359 tani (6,3 %) tashkil etgan. Ilmiy tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlanmalarni bajargan xodimlari nisbatan kam hududlar sifatida Jizzax viloyati – 520 ta (1,4 %), Surxondaryo viloyati – 778 ta (2,1 %) va Sirdaryo viloyatida 882 ta (2,4 %) qayd etilgan.

Ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga xarajatlar



Manba: O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi ma'lumoti asosida muallif ishlanmasi

O'zbekiston Respublikasida 2024 yilda ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga xarajatlar qiymati hajmi 1 574,1 mlrd so'mni tashkil etib, 2023 yilga nisbatan 184,9 mlrd so'mga, yoki 13,3 % ga oshgan.[1]

2024 yilda ilmiy tadqiqot va ishlanmalarga xarajatlarning eng ko'p qismi Toshkent shahrida – 68,4 % (1 077,2 mlrd so'm), Navoiy – 13,7 % (215,2 mlrd so'm) va Toshkent – 7,9 % (125,1 mlrd so'm) viloyatlarida kuzatilgan bo'lsa, boshqa hududlarga nisbatan kam ko'rsatkichlar esa Jizzax viloyati – 0,2 % (2,7 mlrd so'm), Qashqadaryo viloyati – 0,2 % (3,7 mlrd so'm) hamda Andijon viloyatida 0,3 % (4,2 mlrd so'm) qayd etilgan.

Innovatsiya – yangi yoki takomillashtirilgan mahsulot, xizmat, texnologiya yoki tashkiliy echimning paydo bo'lishi va bozorda ilgari surilishiga olib keladigan ilmiy-texnik faoliyat natijasi hisoblanadi.

Joriy qilingan innovatsiyalar soni 2024 yilda joriy qilingan innovatsiyalar soni 5 521 tani tashkil etib, ulardan 4 889 tasi texnologik innovatsiyalar, 240 tasi marketing innovatsiyalar hamda 392 tasi tashkiliy innovatsiyalarni tashkil qildi.



Manba: O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi ma'lumoti asosida muallif ishlanmasi[1]

Mahsulot innovatsiyalari bu – ma'lum bir korxonada ishlab chiqarishga kiritilgan xususiyatlari yoki foydalanish usullari bo'yicha yangi yoki sezilarli darajada yaxshilangan mahsulotlar (tovarlar yoki xizmatlar).

O'zbekiston Respublikasida 2024 yilda yuklab jo'natilgan innovatsion tovarlar, ishlar va xizmatlar hajmi 63 604,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2023 yilga nisbatan 7 857,9 mlrd so'mga, yoki 14,1 % ga oshgan.

2024 yilda yuklab jo'natilgan innovatsion tovarlar, ishlar va xizmatlar hajmining eng ko'p qismi Toshkent shahrida 26 123,5 mlrd so'm (41,1%), Andijon – 16 572,8 mlrd so'm (26,1 %) va Jizzax viloyatlarida – 9 277,8 mlrd so'm (14,6 %) kuzatilgan bo'lsa, boshqa hududlarga nisbatan kam ko'rsatkichlar esa Namangan – 154,6 mlrd so'm (0,2 %) va Samarqand viloyatlari – 280,9 mlrd so'm (0,4 %) hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida 262,6 mlrd so'm (0,4 %) qayd etilgan.

Marketing innovatsiyasi – yangi yoki sezilarli darajada takomillashtirilgan marketing usullarini amalga oshirish.[3]

Tashkiliy innovatsiyalar – biznes yuritishda, ish joylarini tashkil qilishda yoki tashqi aloqalarda yangi usullarni joriy etishga qaratilgan.

2024 yilda innovatsiyalarga xarajatlar 9 739,3 mlrd so'mni tashkil etib, 2023 yilga nisbatan 877,2 mlrd so'mga yoki 8,3 % ga kamayganligi qayd etildi. 2024 yilda innovatsiyalarga xarajatlarning eng ko'p qismi Toshkent shahrida – 41,8 % (4 072,0 mlrd so'm), Navoiy – 27,3 % (2 658,1 mlrd so'm) va Xorazm – 13,9 % (1 349,5 mlrd so'm) viloyatlarida kuzatilgan bo'lsa, boshqa hududlarga nisbatan kam ko'rsatkichlar esa Namangan – 0,4 % (43,0 mlrd so'm) va Buxoro viloyatlari – 0,6 % (54,6 mlrd so'm) hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida 0,6 % (60,9 mlrd so'm) qayd etilgan.

Jahonda hozirgi taraqqiyot bosqichida innovatsion iqtisodiyotga o'tilayotgan bo'lib, u turli faoliyat sohalarida yangi texnologik echimlarni ishlab chiqish va amalga oshirishning samarali tizimiga asoslanadi. Tabiiy resurslar mavjudligi va cheklanganligi muhim rol o'ynagan davrda texnologik rivojlanishni jadallashtirish uchun ularni iloji boricha samarali ishlatish lozim.[5]

Xulosa qilib aytgandigan bo'lsak, Bozor iqtisodiyotini rivojlantirishning hozirgi bosqichida, innovatsiyalarni joriy etish, milliy korxonalar raqobatdoshligini oshirish, ularning iqtisodiy mustaqilligini va bozordagi mavqeini mustahkamlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Innovatsion faoliyatda agar ular yangi yoki sezilarli yaxshilangan xizmatlarni, ularni ishlab chiqarish va etkazib berish usullarini joriy etishga bevosita bog'liq bo'lmasa, bular texnologik innovatsiyalar hisoblanmaydi. Tashkiliy va boshqarish bo'yicha o'zgartirishlar (boshqarishning ilg'or usullariga o'tish, jiddiy o'zgartirilgan tashkiliy tuzilishni joriy etish, korxonaning iqtisodiy strategiyasida yangi yoki sezilarli o'zgartirilgan yo'nalishlarni amalga oshirish) hamda sifat standartlarini joriy etish bilan bog'liq bo'ladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. <https://stat.uz/uz> O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi rasmiy sayti
2. A.A.Mamatov, T.T. Jo'rayev, A.N.Erkayev, Innovatsion iqtisodiyot (o'quv qo'llanma) T.: 2019, 456 bet.
3. Ergashxodjayeva Sh.Dj., Abduxalilova L.T. Marketing tadqiqotlari. Darslik.. - T.:Iqtisodiot, 2019 y. 378 bet.
4. A.Taniyev. INNOVATSION IQTISODIYOT Darslik Samarqand – 2020
5. Y.E. Aliyev INNOVATSION IQTISODIYOT O'quv qo'llanma TOSHKENT - "IQTISODIYOT" – 2019